



SHAXSDA INTELLEKT VA KREATIVLIK FENOMENLARINI TADQIQ ETILISHI

N.Jabborov

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-August 2023 yil

Ma'qullandi: 28-August 2023 yil

Nashr qilindi: 03-August 2023 yil

KEY WORDS

Shaxs, kreativlik, intellekt, metod,

ABSTRACT

Ushbu maqolada shaxs ada intellekt va kreativlik fenomenlarining tadqiq etilishi haqida so'z yuritiladi.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari uning temperament, xarakter va qobiliyatlari bilan bir qatorda kreativlik va intellektda ham namoyon bo'ladi. Kreativlik tushunchasi lotin tilidagi "creatio" so'zidan olingan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni anglatadi. Kreativlik ijodga bo'lgan umumiy qobiliyatlar yig'indisidan iborat bo'lib, kishining an'anaviy tafakkur chegarasidan chiqib, g'ayrioddiy g'oyalarni va muammolarning noyob, betakror echimini topish qobiliyatidir.

Intellekt lotincha "intellectus" so'zidan olingan bo'lib, u odatda aql-idrok, anglash, tushunish, fahmlash degan ma'nolarni anglatadi. Intellekt insonning ma'lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tizimini tashkil etadi. Intellekt kishining mavhum fikr yuritishi, bilimlarning o'zaro munosabati, ularning atrof-muhitga moslashishdagi ta'siri, ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga, sonli amallarni bajarishga nisbatan qobiliyati, lug'at boyligi, predmet hamda hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ajrata olish uquvi, nutq tezligi yoki sur'ati, fikrlash tezligi, mantiqiyiligi, izchilligi va xotira kuchida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy psixologiyada shaxs kreativligi va uning intellekti o'rtasidagi munosabatlar masalasiga turli xil yondashuvlar mavjud.

M.Xolodnayaning fikricha, kreativlik tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Tor ma'nodagi kreativlik bu divergent tafakkurdir. Keng ma'noda esa, kreativlik tushunchasi ijodiy, intellektual qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, hayot tajribasiga nimadir yangilik olib kirilishi, yangi muammolarni qo'yish va hal etishdagi betakror g'oyalarning tug'ilishi, muammoni hal etish va farazlarni shakllantirishda tafakkurning stereotip usullaridan voz kechish, qarama-qarshilik va uzilishlarni anglash qobiliyatidir. Kreativlik, S.I.Makshanov va N.Xryashevalar tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, -xulq-atvor va tafakkurning nostandartligi va konstruktiv faoliyatga qobiliyatidir.

Kreativlik ijodga qobiliyat, aqliy ijod, noyob, betakror, yangi o'ziga xos xususiyatlar, yaxlit tuzilmalarni qayta qurish, axborotlarni g'ayrioddiy tarzda kodlashtirish, divergent

tafakkur, shaxsning ichki nizolari natijasi, mavjud bilimlar chegarasidan chetga chiqish, noanaviy tafakkur va boshqa xususiyatlarga egadir

Gilford tomonidan kreativlikni ifodalaydigan 16 xil intellektual qobiliyatlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular semantik egiluvchanlik, obrazli moslashuvchan egiluvchanlik, semantik tarqoq egiluvchanlik, originallik, qiziquvchanlik, farazlarni ishlab chiqish qobiliyati, irrelevantlik (qo'zg'atuvchiga reaksiyalarni mantiqiy bog'lanmaganligi), xayolparastlik (muammoning echimini real hayotdan uzoqligi, reaksiya va stimul o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishning o'ziga xosligi) va boshqalardir.

Ye.P.Ilin tomonidan kreativlik va intellekt o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettiruvchi uch xil yondashuv tahliliy o'rganilgan.

1. Dj. Gilford, K. Teylor, G. Gruber, Ya. A.Ponomarevlarining fikricha, kreativlik intellekt bog'liq bo'lmagan mustaqil omildir. E.P.Torrensning. "intellektual chegara" to'g'risidagi nazariyasiga ko'ra, agar intellektual koeffitsient 120 dan yuqori bo'lsa, ijodiy qobiliyat mustaqil ko'rsatkichga aylanadi, bu quyi darajada intellektga ega kreativ shaxslar bo'lmasligi, ammo kreativlik darajasi past bo'lgan intellektual kishilar uchrashi mumkinligidan dalolat beradi.

2. Intellektning yuqori darajasi yuqori darajadagi ijodiy qobiliyatni ta'minlaydi degan nazariya tarafdorlaridan biri M.Ayzenkning fikricha, "ba'zilar konvergent, boshqalar divergent tarzda fikrlasalar, yana shunday kishilar borki ular har ikki fikrlash usulidan samarali foydalana olishadi. Bunda eng muhimi muammoning yechimini topish jarayonida shaxs qanday tezlik bilan konvergent fikrlashdan divergent tafakkurga o'ta olishini kuzatishdir"(2004).

3. D. Veksler, R. Uaysberg, G. Ayzenk, L. Termen, S. Gerbert va boshqalarning fikricha, alohida olingan kreativlik mavjud emas. Tadqiqotchilar ilmiy qonunlarni kashf qilish uchun oddiy kognitiv jarayonlarning o'zi yetarli deb hisoblashadi. Bunday qarama-qarshiliklarni aniqlash uchun maxsus eksperimental tadqiqotlar tashkil etish zarur bo'ladi.

Shaxsning kreativ qobiliyati va intellekti nafaqat nazariy, balki eksperimental tadqiqotlarning ham predmetiga aylandi. Hozirda kreativ qobiliyat va intellektni o'rganishning ko'plab metod va metodikalaridan samarali foydalanilmoqda.

S.Mednikning verbal kreativlikni aniqlash testi T.V.Galkina, E.G.Alekseeva va L.K.Xusniddinova tomonidan moslashtirilgan bo'lib, qo'zg'atuvchi material sifatida testda 40 ta so'zli triada(uchlik)lardan foydalaniladi. Har bir triadaga kirgan so'zlar bir-biridan assosiativ sohasiga ko'ra yiroqdir. Tekshiriluvchilar tomonidan har bir uchlik uchun umumiy bo'lgan so'zni topish darajasiga ko'ra uning kreativligi va intellekti haqida xulosa chiqariladi.

Bolalar kreativligini diagnostika qilish maqsadida Vilyams shkalasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Vilyams shkalasi ota-onalar va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib olti bo'lim yordamida ijodkor bolalar xulq-atvorining turli sifatleri o'rganiladi.

Gilford va Torrenslar tomonidan ishlab chiqilgan hamda Ye.Tunik modifikasiya qilgan metodika verbal va noverbal kreativlikni diagnostika qilishning eng ishonchli hamda yuqori darajada validlikka ega psixodiagnostik vositasidir

Kreativlik va intellektni diagnostika qilish metod va metodikalarini qo'llashda ularning yuqori darajada validlikka egaligi hisobga olish, o'tkazish tartibi, natijalarni tahlil qilish va sharhlash qoidalarga to'liq rioya etish uning yordamida ishonchli ma'lumotlar olishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности . : Питер; СПб.; 2009.- 320с.
2. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. - 2-е изд., перераб.и доп. - СПб.: Питер, 2002. - 264 с.
3. Ғозиев Э.Ғ. Талабаларни умумлаштириш усулларига ўргатиш ва уларнинг ақлий тараққиёти.- Т.:Ўқитувчи, 1983.-144 б.

